

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

Ro'yxatga olindi:  
№ MD-5A230701-2.03  
2018 yil "8" 05



Oliy va o'rta maxsus ta'lim  
vazirligi

2018 yil "9" 06

**BANK RISKLARI**

**FAN DASTURI**

Bilim sohasi: 200000 – Ijtimoiy soha, iqtisod va huquq  
Ta'lim sohasi: 230000 – Iqtisod  
Mutaxassislik: 5A230701 – Bank ishi (*pul muomalasi va kredit*);

Toshkent-2018

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2018 yil "14" 06 dagi 531-sonli buyrug'ining 10 -ilovasi bilan fan dasturi ro'yxati tasdiqlangan.

Fan dasturi Oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi yo'nalishlari bo'yicha O'quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi Kengashning 2018 yil "26" 05 dagi 2 - sonli bayonnomasi bilan ma'qullangan.

Fan dasturi Toshkent moliya institutida ishlab chiqildi.

**Tuzuvchi:**

Abdullayeva Sh.Z. - TMI "Bank ishi" kafedrasi mudiri, i.f.d., professor;

**Taqrizchilar:**

Toymuxammedov I. - TDIU, "Bank ishi" kafedrasi dotsenti, i.f.n. (*turdosh OTM*);

Umarov Z. - TMI, "Bank hisobi va audit" kafedrasi mudiri, i.f.n.

Fan dasturi Toshkent moliya instituti Kengashida ko'rib chiqilgan va tavsiya qilingan (2018 yil "29" 03 dagi 8/9/10- sonli bayonnomasi)

## I. O'quv fanining dolzarbligi va oliy kasbiy ta'limdagi o'rni

Bozor munosabatlari sharoitida bank tizimi milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligini va barqarorligini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega bo'lib, bank tizimida faoliyat yuritish uchun zarur ko'nikma va bilimlarni egallash dolzarb masalalardan hisoblanadi.

Ushbu dastur bozor iqtisodiyoti sharoitida banklar faoliyatida risklar, ularning turlari va ularni nazorat qilishda O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining roli, tijorat bankining kreditlash jarayoni va u bilan bog'liq risklar, kredit risklarini boshqarishning asosiy bo'g'inlari va muammoli kreditlar, tijorat banklari passivlari va aktivlari bilan bog'liq risklarni boshqarish, tijorat banklarida portfel riski va uni boshqarish hamda bank risklarini boshqarish usullari kabi masalalarini qamraydi.

“Bank risklari” kursi “Bank ishi”, “Bank auditi”, “Banklarda buxgalteriya hisobi”, “Tijorat banklari faoliyati tahlili”, “Bank menejmenti va marketingi” va “Iqtisodiy tahlil” fanlari bilan uzviy aloqadordir.

Magistrlarning “Bank risklari” fanini o'zlashtirishlari uchun o'qitishning ilg'or va zamonoviy usullaridan foydalanish, yangi informatsion-pedagogik texnologiyalarni tatbiq etish muhim ahamiyatga egadir. Fanni o'zlashtirishda darslik, o'quv va uslubiy qo'llanmalar, ma'ruza matnlari, tarqatma materiallar, elektron materiallardan foydalaniladi. Ma'ruza va amaliy mashg'ulotlarida aqliy hujum, klaster, amaliy ish o'yini, portfolio, keys-stadi, didaktik o'yinlar, shuningdek, kompyuter dasturlaridan, multimedia vositalaridan, internet sahifalari va tizimlaridan foydalanish tavsiya etiladi.

“Bank risklari” fani 5A230701 – Bank ishi (pul muomalasi va kredit bo'yicha) mutaxassisligida asosiy fan hisoblanib, xo'jalik yurituvchi sub'ektlar va jismoniy shaxslarni kreditlashning rivojlanishini rejalashtirish va bashorat qilish, kredit risklarini kamaytirish va kreditga layoqatlilikni baholashning ilg'or shakllari va usullarini ishlab chiqish, xo'jalik yurituvchi sub'ektlar va jismoniy shaxslarni kreditlash bilan bog'liq risklarni kamaytirishning strategik yo'nalishlarini ishlab chiqish va tadqiq qilish, bank faoliyatini tartibga soluvchi iqtisodiy me'yorlar hisob-kitobi, ularni baholash, tashkil qilish va takliflar ishlab chiqishda muhim rol o'ynaydi.

## II. O'quv fanining maqsadi va vazifasi

“Bank risklari” fanining asosiy maqsadi Fanni o'qitishdan maqsad – magistrantlarga tijorat banklari faoliyatidagi risklarni baholash va boshqarish bo'yicha chuqur bilim berish va ko'nikmalar hosil qilish.

Fanning vazifasi – har bir risk turini baholash, boshqarishning nazariy va amaliy jihatlarni ko'rsatishdan iborat.

“Bank risklari” fanini o'zlashtirish jarayonida magistr:

- risklarni boshqarishning iqtisodiy dastaklari;

- bank risklarini xalqaro amaliyotda boshqarish usullari;
- aktiv va passivlarni boshqarish yo'llari;
- bank faoliyatini tartibga soluvchi iqtisodiy me'yorlar;
- bank kredit portfelini shakllantirish va uni qayta tashkil etish masalalari;
- tijorat banklari likvidligini boshqarish;
- bank aktivlari va passivlarini boshqarishning **usullarini bilishi va ulardan foydalana olishi**;
- xorijiy mamlakatlarning banklari faoliyatida risklarni boshqarish amaliyoti;
- bank faoliyatida risklarning turlari;
- risklarni boshqarish usullari;
- risklarni boshqarishda bank nazoratining ahamiyati va roli;
- Markaziy bank tomonidan tijorat banklari faoliyatini tartibga solish;
- bank nazoratini iqtisodiy tahlil qilish usullari haqida **malakaga ega bo'lishi lozim**;
- bank risklarini boshqarish;
- kredit risklarini pasaytirish usullaridan foydalanish;
- risklarni boshqarishni tashkil etish muammolarini echish;
- risklarni boshqarishda matematik modellardan foydalanish;
- bank faoliyatining iqtisodiy ko'ratkichlarini hisoblash;
- bank balansini tahlil qilish bo'yicha **ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak**.

### **III. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)**

#### **1-modul.Banklar faoliyatida risklar va ularni boshqarish**

##### **1-mavzu. Bank risklarini boshqarish tizimi va uning tuzilishi**

“Bank risklari” fanining predmeti, vazifalari va banklar faoliyatida risklarning ahamiyati. Bank risklarining turlari va uning tasnifi. Bank risklarini boshqarishning nazariy asoslari. Bank risklarini boshqarish tizimi va uning elementlari. Banklar faoliyatida risklarni boshqarish qo'mitasining vazifalari. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan risklarni boshqarish qo'mitasiga belgilangan talablar.

##### **2-mavzu.Kredit riski mazmuni, baholash va uni boshqarish usullari**

Kredit riskining mohiyati va uning kelib chiqish sabablari. Kredit riskining turlari va ularning tavsifi. Kreditlash jarayonida kredit riskini aniqlash va uni boshqarish. Banklarda kredit riskini baholash usullari. Kredit riskini boshqarish usullari. Tijorat banklari kredit siyosatining kredit riskini boshqarishdagi o'zni. Banklarda kredit portfelini samarali boshqarish kredit riskini kamaytirish vositasi

sifatida. Banklarda kredit riskini boshqarishning jahon tajribasi va undan O'zbekiston amaliyotida foydalanish imkoniyatlari. Kredit riskini sug'urta qilish muammolari va xorij tajribasi.

Markaiv bank tomonidan tijorat banklarining amaliyotiga nisbatan belgilangan iqtisodiy me'yorlar.

### **3-mavzu.Foiz riski va uni boshqarish usullari**

Foiz riskining mohiyati va uning bank faoliyatiga ta'siri. Tijorat banklarida foiz riskini boshqarish tizimini tashkil qilish. Tijorat bankining foiz siyosati va uning foiz riskini boshqarishdagi ahamiyati. Banklarda foiz riskini baholash va uni boshqarish usullari. GEP orqali foiz riskini boshqarish. Banklarda foiz riskini boshqarishning jahon tajribasi va undan O'zbekiston amaliyotida foydalanish imkoniyatlari. Banklarda foiz riskini samarali boshqarish yo'llari.

### **4-mavzu. Operatsion risk va uni boshqarish usullari**

Operatsion riskning mohiyati va uning bank faoliyatiga ta'siri. Tijorat banklarida operatsion riskni baholash usullari. Tijorat banklarida operatsion riskni boshqarish usullari. Tijorat banklarida operatsion risklarni qoplash uchun zaxiralar tashkil qilish bo'yicha.

Banklar faoliyatidagi operatsion riskni baholash va boshqarish bo'yicha Bazel qo'mitasining tavsiyalari.

### **5-mavzu.Tijorat banklarida portfel riski va uni boshqarish**

Tijorat banklari qimmatli qog'ozlari operatsiyalari bilan bog'liq risklar. Tijorat banklarining fond bozorida operatsiyalari va ular bilan bog'liq risklar. Tijorat banklarida portfel riskini baholash masalalari. Tijorat banklari faoliyatida portfel riskini boshqarish usullari.

### **2-modul. O'zbekistonda bank risklarini boshqarishning iqtisodiy asoslari**

### **6-mavzu.Tijorat banklari passivlari va aktivlari bilan bog'liq risklarni boshqarish**

Tijorat banklari tomonidan resurslarni jalb qilish va u bilan bog'liq risklar. Aktiv va passivlar o'rtasidagi mutanosiblik va u bilan bog'liq risklar. Tijorat banklarining aktiv va passivlari bilan bog'liq risklarni boshqarish. Tijorat banklarining aktivlari bilan bog'liq risklar.

## **7-mavzu. Tijorat banklarining xalqaro operatsiyalari bilan bog'liq risklar**

Tijorat banklarining xalqaro operatsiyalari bilan bog'liq risklarning mazmuni va ularning bank faoliyatiga ta'siri. Tijorat banklari faoliyatida valyuta riskini kelib chiqish sabablari. Valyuta riskining turlari. Banklarda valyuta riskini baholash. Tijorat banklarida valyuta riskini boshqarish usullari.

## **8-mavzu. Tijorat banklarida likvidlilik riski va uni boshqarish**

Tijorat banklarida likvidlilik riski mazmuni va uning bank faoliyatiga ta'siri. Bank likvidiligini boshqarish strategiyasi. Tijorat banklarida likvidlilik riskini baholash. Banklarda likvidlilik riskini boshqarish usullari. Tijorat banklari likvidlilikini samarali boshqarishning jahon tajribasi.

## **9-mavzu. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining tijorat banklari faoliyatidagi risklarni nazorat qilishdagi o'rni**

Markaziy bank tomonidan tijorat banklarining kreditlash faoliyatini tartibga solish orqali kredit riskini kamaytirish. Banklarda daxldor va o'zaro aloqador bo'lgan shaxslarga to'g'ri keladigan kredit riskini boshqarish. Banklarning investitsion faoliyati bilan bog'liq risklarni boshqarish. Markaziy bankning tijorat banklari valyuta riskini boshqarishdagi o'rni.

### **IV. Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar**

Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

- Bank risklarini boshqarish tizimi va uning tuzilishi.
- Kredit riski mazmuni, baholash va uni boshqarish usullari.
- Foiz riski va uni boshqarish usullari.
- Operatsion risk va uni boshqarish usullari.
- Tijorat banklarida portfel riski va uni boshqarish.
- Tijorat banklari passivlari va aktivlari bilan bog'liq risklarni boshqarish.
- Tijorat banklarining xalqaro operatsiyalari bilan bog'liq risklar.
- Tijorat banklarida likvidlilik riski va uni boshqarish.
- O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining tijorat banklari faoliyatidagi risklarni nazorat qilishdagi o'rni.

*Amaliyot mashg'ulot mavzulari bo'yicha fanning ishchi o'quv dasturida qo'shimchalar va o'zgartirishlar kiritilishi mumkin.*

Amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish bo'yicha kafedra pedagog hodimlari tomonidan ko'rsatma va tavsiyalar ishlab chiqiladi. Unda talabalar asosiy ma'ruza mavzulari bo'yicha olgan bilim va ko'nikmalarini amaliy mashqlar, masalalar, keyslar orqali yanada boyitadilar. Shuningdek, darslik va o'quv qo'llanmalar bo'yicha talabalar bilimlarni o'zlashtirish va mustahkamlash, tarqatma materiallar asosida bilimlarni o'zlashtirish, ilmiy maqolalar va tezislardan foydalanish,

masalalar echish, mavzular bo'yicha taqdimotlar va ko'rsatmali qurollar tayyorlash, qonun, qaror, me'yoriy-huquqiy hujjatlardan foylanish lozim.

## **V. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar**

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. Iqtisodiy risklar, va ularning tasniflanishi
2. Tijorat banklarida risk-menejmentni tashkil etish tamoyillari
3. Tijorat banklarida kredit riskini boshqarishning VAR usuli.
4. Disbalans usuli orqali foiz riskini boshqarish masalalari.
5. Tijorat banklarida operatsion riskni baholash va boshqarishning xalqaro tajribasi.
6. Tijorat banklarida portfel riskini Dyuran modeli orqali boshqarish
7. GEP usuli aktiv va passivlar bilan bog'liq risklarni boshqarish masalalari.
8. Vayulta kursi o'zgarishi bilan bog'liq risklarni boshqarish masalalari.
9. Tijorat banklari likvidililigi va daromadliligi muvofiqlashtirish orqali bank likvidlilik riskini boshqarish.
10. Markaziy bankning tijorat banklari risklarini boshqarishdga ta'siri.

*Mustaqil ta'lim va mustaqil ish mavzulari fanning ishchi o'quv dasturida o'zgartirilishi mumkin.*

Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan referatlar tayyorlash va uni taqdimot qilish yoki boshqalar tavsiya etiladi.

## ***Fan bo'yicha kurs ishi o'quv rejada ko'zda tutilmagan***

## **VI. Asosiy va qo'shimcha o'quv adabiyotlar hamda axborot manbaalari**

### **Asosiy adabiyotlar**

1. Abdullaev Yo.A., Qoraliev T.M., va boshqalar "Bank ishi". O'quv qo'llanma - B.M.: T.: "Iqtisod-Moliya", 2009. - 576 b.
2. Abdullaeva Sh., Omonov A. «Tijorat banklari kapitali va uni boshqarish» O'quv qo'llanma./ - B.m.: Iqtisod- moliya, 2006. - 118 b.
3. Abdullaeva Sh.Z. Bank risklari va kreditlash. – Toshkent: Moliya, 2002. – 304 b.
4. Арзуманян С.Ю. «Банковские риски» Учебное пособие./ - Т.: "ИКТИСОД-МОЛИЯ", 2007г. - 200 с.
5. Моисеев С.Р. Денежно-кредитная политика: теория и практика. Учебное пособие. – М.: Московская финансово-промышленная академия, 2011. – 784 с
6. Ротбард М. История денежного обращения и банковского дела в США: от колониального периода до Второй мировой войны. Пер. с англ. – Челябинск: Социум, 2012. – 548 с
7. Bank Valuation and Value Based Management: Deposit and Loan Pricing

Performance Evaluation and Risk. Jean Dermine, 514-page 2014 y.

8. Commercial Banking: The management of Risk, James W. Kolari, Benton E. Gup 530-page 2005 y.

9. Community Banking Strategies: Steady Growth, Safe Portfolio Management and Lasting Client Relationships, Vince Boberski, 2010 y.

10. Banking Systems, Center for Financial Training. John Wiley and Sons, Ltd. USA 20012 y. 495p.

### Qo‘shimcha adabiyotlar

11. “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli Farmoni.

12. Mirziyoyev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2017. – 488 b.

13. Mirziyoyev SH.M. Tanqidiy tahlil, qat‘iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. – Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2017. – 104 b.

14. Mirziyoyev SH.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2017. – 56 b.

15. Mirziyoyev SH.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta‘minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2017. – 48 b

16. Белоглазова Г.Н., Кроливецкая Л.М. Банковское дело. Учебник. “Юрайт-Издат” 2012 - 422 с.

17. Бондаренко Н.Н., Кулак А.Г., Пекарская Н.Е. Финансово-банковская статистика. Учебное пособие. – Минск: ГИУСТ БГУ, 2012. – 264 с.

18. Uerta de Soto Xesus. Dengi, bankovskiy kredit i ekonomicheskie tsikli. Per. s angl. – Chelyabinsk: Sotsium, 2008. – 663 s.

19. Цифровая книга: “Банковское дело: современная система кредитования”. Лаврушин О.И., Афанасева О.Н., Корниенко С.Л., “КНОРУС”, 2011. – 363 с.

20. Банковское дело. Учеб. Белоглазова Г.Н., Кроливецкая Л.М. “Юрайт-Издат” 2012. – 422 с.

21. Красавина Л.Н. Международные валютно-кредитные и финансовые отношения: 2-е изд., перераб. и допол. – М.: ФиС, 2002. – 608 с.

22. Mullajanov F.M. O‘zbekiston Respublikasi bank tizimi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2011. – 368 b.

23. Uerta de Soto Xesus. Dengi, bankovskiy kredit i ekonomicheskie tsikli. Per. s angl. – Chelyabinsk: Sotsium, 2008. – 663 s



## **Internet saytlar**

[www.cbu.uz](http://www.cbu.uz) (O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki rasmiy sayti)

[www.bis.org](http://www.bis.org) (Xalqaro hisob-kitoblar banki rasmiy sayti)

[www.ecb.eu](http://www.ecb.eu) (Yevropa Markaziy banki rasmiy sayti)

[www.bank.uz](http://www.bank.uz) (O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari portali rasmiy sayti)

[www.uba.uz](http://www.uba.uz) (O'zbekiston banklari uyushmasi rasmiy sayti)